



## ALISHER NAVOIY ASARLARINI O`QITISHDA “LOYIHA” MVA “IMPULS-PLAKAT” METODLARIDAN FOYDALANISH

**Rustamova Lobarxon Ibragimovna**

*Namangan viloyati To`raqo`rg`on tuman 1-IDUM ona tili va adabiyot fan o`qituvchisi, NamDU mustaqil tadqiqotchisi*

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida, jumladan, rus adabiyotshunosligida ta'lim bosqichlarida YU.K.Babanskiy, V.Ivanov, G.N.Ionin, N.I.Kudryashev, G.A.Gukovskiy, B.S. Gershunskiy, L.M.Mitina kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda, ya'ni yozuvchi va shoirlar ijodini o'rganish masalasi atroflicha o'rganilgan<sup>1</sup>. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitish muammolari S.Dolimov, A.Zunnunov, H.Ubaydullaev, Q.Ahmedov, J.Esonov, N.Hotamov, J.Rahimov kabi o'zbek metodikasining dastlabki vakillari tomonidan o'rganilib, maxsus qo'llanma va risolalar shaklida nashr ettirilgan<sup>2</sup>.

Adabiyot o'qitishning umumiy muammolari qatorida shoir hayoti, ijodi, she'riyat va adabiyot namunalarini o'rganish va tahlillash bo'yicha ham metodik tavsiyalar berilgan. Mustaqillik yillarida adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Metodist olimlardan Q.Yo'ldoshev, B.To'xliiev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboeva, U.Dolimov, R.Niyozmetova, R.Safarov, E.Qilichev, B.Yo'ldoshev, X.Muhitdinova, V.Qodirov<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida hal qilingan muammolar bilan bog'liq ravishda she'riyat va adabiyot namunalarini o'qitish masalasiga ham bevosita yoki bilvosita daxldor jihatlar borligini e'tirof etish o'rinlidir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni, uning sifatini boshqarish masalalari bo'yicha R.X.Djuraev, A.R.Xodjabaev, S.T.Turg'unov, U.I.Inayatov, N.A.Muslimovlar mukammal o'rganishgan.

Adabiyot o'qitish metodikasi, jumladan, alohida bir adib ijodini o'rganish sohasida esa F.Egamberdievaning “Cho'lpon ijodini pedagogik texnologiya

<sup>1</sup> Ионин Г.Н. Изучение литературного произведения в школе. – Ленинград, Наука, 1976. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. – Москва, Просвещение, 1985. Кудряшов Н.И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – Москва, Просвещение, 1981. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – Москва, Дело, 1994.

<sup>2</sup> Долимов С., Ubaydullaev X., Axmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, Ukituvchi, 1967.

<sup>3</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishining ilmiy-naozariy asoslari. – Toshkent, Ukituvchi, 1996. - 151 b. Qodirov V. Umutta'lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishining ilmiy-metodik asoslari. Filol.fan.d-ri...diss. (DSc) avtorreferat. – Namangan, 2019.; To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006.; Niyozmetova P. Uzluksiz ta'lim tizimida uzbek adabiyotini u'rganiш metodikasi. – Toshkent, Fan, 2007.; Niyozmetova P. Uzluksiz ta'lim tizimida uzbek adabiyotini u'rganiш metodikasi. – Toshkent, Fan, 2007.



asosida o'rgatish", O.Usmonovning "Yozuvchi hayoti va ijodini adabiy tahlil va talqin usullariga tayanib o'rgatish", R.Atamurodovning "Adabiy ta'lim jarayonida Abdulla Oripov ijodini o'rgatish usullari", SH.Xo'jamberdievaning "Ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodi va hayotini o'rganish usullari" mavzularidagi dissertatsiyalar yaratilgan<sup>4</sup>. Q.Husanboeva, R.Niyozmetova, B.To'xliev<sup>5</sup>, O.Sharafiddinov, A.Kattabekov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboev, A.Alimbekov, X.Xudoyberdieva singari tadqiqotchilarning izlanishlarida muammoning u yoki bu jihatlariga e'tibor qaratilgan. Ammo o'rganishlarimiz davomida Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni "Loyiha" va "Impuls-plakat" metodlari asosida o'rganilmaganligini aniqladik va mazkur metodlarni tajriba-



dan

o'tkazdik.

Bu metodda o'quvchilar individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida birorta mavzu bo'yicha axborot yig'ish, o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib boradi. Bu metodda o'quvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish, natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqarish yakka yoki guruh bilan bo'lishi mumkin, ammo har bir loyiha guruh birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bunday topshiriqlar mustaqil reja tuzishni amalga oshirishda yaxshi

<sup>4</sup> Эгамбердиева Ф. "Чўлпон иждодини педагогик технология асосида ўргатиш", Усмонова О. "Ёзувчи ҳаёти ва иждодини адабий таҳлил ва талқин усулларига таяниб ўргатиш", беет Атамуродова Р. "Адабий таълим жараёнида Абдулла Орипов иждодини ўргатиш усуллари. Дисс. (Phd) – Тошкент, 2010. Хўжамбердиева Ш. Таълим босқичларида Эркин Воҳидов иждодини ва ҳаётини ўрганиш усуллари. Пед.фан.ном... дисс. – Наманган, 2019.

<sup>5</sup> Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2006. Йўлдошев Қ. Узун йўл боши ёки эркин сўз умри. – Тошкент, 2013. Магочнов С. Комиллик мезонлари. 2014.




samara beradi. Loyihaviy topshiriqlarni bajarish uchun o'qituvchidan ko'rsatish, tushuntirish, izohlash talab etilsa, o'quvchilarga asoslar, faktlar, materiallar to'plash, o'z loyihalarini ishlab chiqish topshiriladi.

## Loyihaga asoslangan ta'lim nima?



- Loyihaga asoslangan ta'lim - unda ishtirokchilar uzoq vaqt mobaynida qiziqarli va murakkab savol, muammo yoki muammoni tekshirish, javob berish, ishlash orqali bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.
- Ta'lim jarayonida loyihalashning quyidagi muhim elementlari mavjud: bilim, tushuncha va muvaffaqiyat ko'nikmalaridir.
- Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasida o'quvchilar dars jarayonida tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilishni, hamkorlikda ishlash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lib boradi.
- Loyiha asosida o'qitishning afzalliklaridan biri bu fanlararo integratsiya bo'lib, bitta loyihada turli fanlar doirasida bir nechta yechim bo'lishi mumkin. O'quvchilar muammolarni hal qilishda o'zlarining strategiyalari va yondashuvlarini erkin tanlaydilar, bu ularning keng dunyoqarashiga ta'sir qiladi.
- Yana bir muhimlik **ijodkorlik va tasavvurni** rag'batlantirishidir.



**Tasavvur  
bilimdan  
muhim!**

Albert  
Eynshteyn





## Loyiha – bu kompleks faoliyat bo‘lib, bunda o‘quvchi:

- muammoni mustaqil ravishda aniqlaydi;
- uni hal qilish yuzasidan vazifalarni belgilaydi;
- muammoni hal qilish usullarini rejalashtiradi;
- belgilangan maqsadga erishishga olib keladigan faoliyatni amalga oshiradi;
- natijani qo‘lga kiritadi va olingan ma‘lumotlarni tahlil qiladi, o‘z ishining sifatini baholaydi.



O‘quvchilarga quyidagicha loyiha ishi berish mumkin:

Guruhlarga bo‘lining. “Farhod va Shirin” dostoni bo‘yicha ma‘lumotlar yig‘ing. Yig‘ilgan materialni mustahkamlash darsida sinfda muhokama qilamiz.

O‘quvchilarga loyiha ishi bir necha kun avval beriladi. Bu davr mobaynida ular berilgan opshiriq asosida ma‘lumot yig‘ishni boshlaydilar.

9-sinfda “Farhod va Shirin” dostoni uchun 10 soat vaqt ajratilgan. Bu o‘quv soatlarini quyidagicha taqsimlash maqsadga muvofiq:

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Xamsachilik an‘analari haqida ma‘lumot uchun 1 soat.
2. “Farhod va Shirin” dostonidan parchalarni o‘qish uchun 5 soat.
3. Nazariy ma‘lumot. Komil inson matni uchun 1 soat.
4. Nazorat ishi. Insho va uning tahlili uchun 3 soat.




“Adabiyot” darsligida shoirning hayot yo’li haqida ma’lunot berilmagan. Shoir haqida o’quvchilar mustaqil bilib olishlari mumkin. Chunki 9-sinf o’quvchisi uchun Alisher Navoiy hayotiga doir ma’lumotni bilish ixtiyoriy bo’lishi lozim.

### 1. Darsning boshida qo’llaydigan usullar

1. “Bir daqiqa” usuli orqali o’quvchilarning kayfiyatini bilib olish mumkin. Bunda 1 dan 10 gacha bo’lgan raqamlardan foydalanadilar. O’qituvchi o’quvchilardan tanlagan raqamlarini ydi. Agar o’quvchilar 5 raqamidan past raqamni aytсалar, ularning kayfiyatlarini she’r, kuy, ajoyib bir xabarni aytish orqali ko’tarish mumkin. Bu usul uchun atigi 1 daqiqa vaqt kerak bo’ladi xolos.

Quyida biz ham shoirning “Farhod va Shirin” dostoni borasidagi xulosalarimizni tavsiya etamiz.

O’quvchilar o’z xohishlari bilan guruhlariga bo’linadilar va guruhga nom qo’yadilar. O’quvchilar “Farhod va Shirin” dostoni bo’yicha to’plagan materiallarini jamoada o’rtoqlashadilar. Loyihada yakka, mustaqil va jamoada faoliyat olib boriladi. O’quvchilar mustaqil, ijodiy va kreativ fikrlaydi. Asarni to’la o’qib chiqishga erishadi. Guruhlar o’rtasida do’stona bellashuv paydo bo’ladi. Farhod, Shirin timsollari orqali bugungi yoshlar hayoti taqqoslanadi. Alisher Navoiyning doston orqali nima demoqchi ekanini ifodalab beradilar. Doston loyihasida kerakli o’rinlarda rasm orqali voqealar tasvirlanadi. Audio matn orqali ham ma’lumot berish mumkin. Bir so’z bilan aytganda, sinfdagi har bir bola faol bo’ladi, o’z fikrini, asar yuzasidan o’z qarashlarini bayon qila oladi.






## Kitob sharhidagi asosiy qismlar

- Ishning mazmunini to'la ifodalaydigan sarlavha
- Kitobning maqsadini va muallifning ba'zi maqsadlarini amalga oshirganligini aniqlaydigan qism
- Kitobning qisqacha mazmunini ochib beradigan qism
- Kitobning kuchli tomonlarini ta'kidlaydigan qism
- Kitobdagi kamchiliklarni ta'kidlaydigan qism
- Kitobning kuchli va zaif tomonlarini baholashni ko'rsatadigan qism

**Birinchi qadam:** kitobda nima borligini tasvirllovchi bir nechta jumlar bilan matn tuzishni boshlang.



## Loyihani amalga oshirish qadamlari

- Birinchi qadam:** Kitobda nima borligini tasvirllovchi bir nechta jumlar bilan matn tuzishni boshlang.
- Bunda kitob mazmunining batafsil tafsilotini berishdan qochish kerak.
- Ikkinchi qadam:** Kitobdan sizga yoqqan joylarini muhokama qiling
- Bu yerda siz kitob mazmuni va g'oyalari qanday taqdim etilganligi haqidagi his-tuyg'ularingiz va fikrlaringizga e'tibor qaratishingiz kerak. Bunda Siz bir nechta savollarga javob berishga urinib ko'rishingiz mumkin, masalan, sizning sevimli qahramoningiz kim edi va nima uchun? Kitobning qaysi qismi sizga qiziqarli bo'ldi va nima uchun? Kitobdagi qahramonlar sizga haqiqiy tuyuldimi? Kitobning qaysi qismlari sizni taxmin qilishga majbur qildi? va boshq.
- Uchinchi qadam:** Kitobning sizga yoqmagan o'rinlarini muhokama qiling.
- Bunday holda, nima uchun u sizga ma'qul kelmadi? Qaysi o'rinda asabiylashdingiz? Ba'zi qahramonlarning xatti-harakatlarini tushunish sizga qiyin bo'ldimi? Nega?..
- To'rtinchi qadam:** Sharh xulosasini yozing.
- Ushbu bosqich ko'rib chiqilayotgan kitob haqidagi fikrlaringizni umumlashtirish orqali sharhni yakunlashni o'z ichiga oladi. Bu, shuningdek, kitobni tavsiya qiladigan kitobxon turini aniqlashni o'z ichiga oladi, masalan, yoshi kattaroq yoki kichikroq o'quvchilar. Kitobning asosiy qismida bo'lishi mumkin bo'lgan iqtiboslar va tushuntirishlarning qisqacha mazmunini taqdim etish juda muhimdir. Kitob tahlili kitob orqali olish mumkin bo'lgan ulkan taassurot uyg'otuvchi jumla bilan yakunlanishi kerak.
- Beshinchi qadam:** Kitob reytingini taqdim eting.
- Yaxshi sharhlovchi kabi siz kitobga baho berishingiz mumkin, bu ixtiyoriy. Buning uchun 10 ta yulduzcha chizib, qo'yimochi bo'lgan bahoyingizga mos yulduzcha ichini bo'yab chiqing. Bunday yulduzli reytingni kiritish bo'lajak o'quvchilarga asar haqida qo'shimcha ma'lumot beradi. Reyting ixtiyoriy mashq bo'lsa ham, kitob mazmunini qo'shimcha tushunish uchun ahamiyatlidir.

## O'quvchining loyiha ishini baholash mezonlari



### Maqsad va vazifalar:

- ✓ mustaqil ravishda shakllantirilgan bo'lsa – 2 ball;
- ✓ bevosita o'qituvchi ko'rsatmasiga asosan shakllantirilgan bo'lsa – 1 ball;
- ✓ umuman shakllantirilmagan bo'lsa – 0 ball.

### Loyihani rejalashtirish:

- ✓ reja belgilangan vazifalarga muvofiq tuzilgan bo'lsa – 2 ball;
- ✓ reja va vazifalar qisman mos kelsa – 1 ball;
- ✓ reja va vazifalar mos kelmasa – 0 ball.

### Ma'lumot bilan ishlash:

- ✓ ma'lumotlar loyihaning mazmuniga mos kelsa – 2 ball;
- ✓ qisman mos kelsa – 1 ball;
- ✓ mavzuga mos kelmasa – 0 ball.

### Eslatma!

Taqdimotchining shaxsiy xislatlari va savollarga javob berishi, taqdimotning sifati quyidagi talablarga javob bersa, 2 ball qo'yiladi:

- ✓ loyiha ishi natijalari to'liq, aniq va lo'nda taqdim etilsa;
- ✓ dalillarga asoslangan holda savollarga javob berilsa;
- ✓ xulq-atvor qoidalarini va nutq madaniyatiga rioya qilinsa.

Navoiy ijodini o'qitishga oid tajriba tavsiyalarga, zamonaviy qo'llanmalarga bugungi kunda talab yuqori, shu sababli bugun milliy metodikamizda dastur va



darsliklarga uyg'un, yangi pedagogik texnologiyalar qo'llangan, zamonaviy metodlardan unumli foydalanilgan, o'qituvchi va o'quvchilar uchun mo'ljallangan ish usullarini yaratishga ehtiyoj mavjud. Interfaol metodlar esa mazkur ishlarni tashkillashtirish, o'quvchilar bilan individual yoki jamoaviy ishlash, vaqtni tejashda qulayliklar yaratadi. "Yangi pedagogik texnologiyaning asl mohiyati, nazarimizda, muayyan mavzuga oid manba va materiallarni o'quvchi odatlangan shakl va ko'rinishlarini tashkil etishdan iboratdir"<sup>6</sup>.

Bunda milliy metodikamizning tajribasidan unumli foydalanish, ularni bugungi kun ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, yangi zamonaviy shakl va usullar ustida bosh qotirish va ularni tatbiq qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

2. Yangi mavzu: "Farhod va Shirin" dostonini mustahkamlash. Alisher Navoiy va uning asarlari haqida nimalarni bilasiz? Shoir sizningcha qanday inson edi? Dars bahs-munozara tarzida olib boriladi. O'qituvchi inson boshqalarga, o'zini oq yuvib, oq taragan, voyaga etkazgan millatiga nimasi bilan foyda keltiradi? deya savol bilan o'quvchilarga murojaat qiladi. Bu savolga o'quvchilar klaster usulida quyidagicha javob yozadilar. O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda quyidagilarni qo'shimcha tarzda aytadi: Alisher Navoiy juda o'rinli va chiroyli tarzda javob berib ketgan: "*Tuxm erga kirib, chechak bo'ldi, Qurt jondin kechib, ipak bo'ldi. Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmu?! Pilla qurticha himmating yo'qmu?!*" Bu satrlardan xalqimizning har bir vakili, ayniqsa, yosh avlod etarlicha xulosalar chiqarib olmog'i darkor. Qurtu qumursqalardan tortib, uchar qushlargacha, yovvoyi hayvonlargacha – barchasi yashash, keyingi avlod uchun zamin yaratish ishq bilan hayot kechirayotgan bir paytda nima uchun inson bolasi zabun, harakatsiz, hamma narsadan voz kechib, notinch yashashi kerak?! Aksincha, u el uchun, yurt uchun, porloq kelajak uchun yonib yashamog'i darkor. Buning uchun esa inson biron bir kasbning etagini tutishi joiz. Aks holda, u Navoiy aytgani kabi: "*Kamol et kasbkim olam uyidin, Senga farz o'lmaq'ay g'amnok chiqmoq, Jahondin natamom o'tmak biaynih, Erur hammomdin nopok chiqmoq*".

3. **Yangi** mavzu bayonida: "**Haqiqatmi yoki yolg'on**" metodidan foydalaniladi. Bu metod kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharah tomonidan ishlab chiqilgan.<sup>7</sup> Ushbu metodda o'quvchining mustaqil va ijodiy ishiga ko'proq e'tibor qaratiladi. O'quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik guruhlarda ish olib boradilar. O'rganish lozim bo'lgan o'quv materiali kichik qismlarga ajratiladi, bu qismlar

<sup>6</sup> Малюгина В.А., Черных О.Г. Игровые уроки по литературе. 7 класс. – Москва: Вако, 2009. – С. 3.

<sup>7</sup> Respublika ta'lim markazi. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Filologiya fanlari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Baktria Press. T., 2021-yil, 101-b.



yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinfda o'z izlanishlarini e'lon qiladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvafaqqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman, sinf jamoasini jiplashtirishga, oldin o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanishi, yangi bilimlarning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

Shoirning "Farhod va Shirin" dostoni asosida qanday badiiy film, drama teatri yoki spektakl bilasiz? Guruhlar javob beradilar. Shundan so'ng o'qituvchi

"Farhod va Shirin" dostonini mustahkamlash mavzusini tushuntirish uchun o'qituvchi 5-daqiqa vaqt sarflaydi. Agar o'qituvchi doston asosidagi badiiy filmdan 2 daqiqalik film namoyishini ko'rsatsa, dars maroqli o'tadi, o'tilgan mavzu tezda o'quvchilarning yodiga tushadi. Dars jarayonida o'qituvchi lug'at daftarlariga notanish so'zlarni belgilab borishlarini tayinlaydi. 6 kishidan iborat 5ta guruhga o'qituvchi quyidagi savollal- topshiriqlar asosida ish olib borishni aytadi:

1. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonini "shavq dostoni" deb ataydi?
2. Shoirning ushbu asari xamsachilikdagi qaysi jihatlari bilan xamsachilikdagi yangilik hisoblanadi?
3. "Shabistonida tug'di bir yangi oy, Yangi oy yo'qqi, mehri olamoroy" baytini izohlang.
4. Farhod ismining ma'nosi nima?
5. Farhod qanday tahsil olgan?
6. Qaysi baytda Farhodning jismoniy barkamolligi tasvirlangan?
7. Farhoddagi g'amginlik sababini tushuntiring.
8. Boniy, Moniy, Qoranlar kim?
9. Farhod qanday ko'zguni qayerdan topib oladi va ko'zgu tilsimini qanday yechadi?
10. Shirin go'zalligi vsf etilgan o'rinlarni eslay olasizmi?
11. Dostonda qanday so'vchilar haqida so'z boradi?
12. Mehinbonuga ta'rif bering.
13. Farhodning Xusravga bergan tanbehini qanday izohlaysiz?
14. "Menga ne yor-u, ne oshiq havasdir, Agar men odam o'lsam, ushbu basdir" baytida ifoda etilgan yuksak ma'naviyatni izohlang.
15. Farhod va Xusrav diologidan parcha keltiring.





16. Farhodning o'limi oldidan butun borliq bilan xayrlashuvini qanday izohlash mumkin?

17. Mulkaro Farhodga kim edi?

18. Xusravning asl maqsadi nima edi?

19. Farhodning Arman yurtiga borib, xalqqa yordam berishini qanday izohlaysiz?

20. Hoqonning yolg'iz o'g'liga ilm-ma'rifat va hunarni egallash shunchalik zarurmidi? Shu kabi savollar orqali o'quvchilar bilimi sinaladi. Har bir guruh o'zining izlanib topgan dalillarini musobaqa jarayonida haqiqat yoki yolg'onligini isbotlaydi. Dostonda uchragan notanish sozlarga ham e'tibor qaratadilar. O'quvchilar shoirning asl maqsadini tushunibgina qolmay, undagi olg'a surilgan g'oyaga amal qilish lozimligini ta'kidlab o'tadilar. Hoqon farzandi bo'lsa-da, Farhodning ilm olish va hunar o'rganishga, xalq dardi bilan yashashga intilishi bugungu kun farzandi uchun ham foydali ekanligidan dalolat beradi. Shu bois ham ushbu bir necha asr o'tsa ham o'z qimmatini yo'qotmaganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, doston ijtimoiy-siyosiy qimmat kasb etishini ham unutmash kerak, chunki har bir farzand o'zligini anglagan holda Vatani taraqqiyoti uchun ilm olishi, aql-zakovatli, kasb-hunarli bo'lishi va turli loyihalar ustida ish olib borishi zarur.

O'qituvchi bor e'tiborini o'quvchilarning javoblariga qaratadi. Farhodning xatti-harakati, egallagan ilm-ma'rifati, hunari, Arman yurtiga borishi, arman xalqining dard-uhasratiga quloq solishi, mamlakatga xavf solgan Xusrav, davlatni odilona boshqarayotgan Mehinbonuga berilgan barcha ta'riflarni tinglab, berilgan ma'lumotlar haqiqat yoki yolg'onligini hal qilishni guruhlarning o'ziga havola qiladi. Bunda guruhlar dostonni to'la o'qib chiqqanliklari muhimdir. Har bir o'quvchi jamoada mulzam bo'lib qolmasligi uchun albatta asarni mukammal o'qib chiqqan va avvalgi darslarda e'borli bo'lib tinglagani asosiy o'rinni egallaydi.

"Farhod va Shirin" dostoni syujeti XII bobdan Chin hoqonining farzandsizligi va shahzoda Farhodning "yo'qlik xonasidan borliq gulshaniga kelgani" ta'rifi bilan boshlanadi. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni uchun tanlagan syujetda Farhodning Chindan, Shirinning Armaniyadan bo'lishi - ijodiy niyat ijrosi uchun eng maqbul variantdir. Negaki, dostonning o'zagi bo'lmish "Ishqiy- qahramonlik" syujet chizig'ining Chin - Armaniya orasida kechishi yozuvchiga o'zini o'ylatgan muammolar tadqiqi uchun zarur voqealarni asarga olib kirish imkonini yaratdi. Chin mamlakatining shohi o'g'il farzand ko'rganligi uchun xalqqa ehson qilib, bir necha kun bayram qiladi. Xalq uch yil soliq to'lashdan ozod qilinadi. Podsho farzandiga yaxshi ism qo'moqchi bo'ladi.



Bolaning yuzida “farri shohiy”, ya’ni shohlik nuri porlab turardi. Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o’rin olgan edi. Shoh “far” so’ziga himmat, iqbol va davlat so’zlarini bosh harflarini qo’shgan edi, Farhod ismi hosil bo’ldi. Chaqaloqni pokiza zotini ko’rgan ishq ham unga Farhod ismini qo’ygan va uni firoq, rashk, hajr, oh va dard so’zlarini bosh harflarini tanlagan edi. O’quvchilar quyidagi jadvallarni taqdim etadilar:

<b>Timsollar nomi</b>	<b>Ular anglatadigan ma’no</b>
<b>Farhod</b>	Haqqa yetishishni maqsad qilgan solik
<b>Shirin</b>	Mazhar, yani Haq jamolini o’zida zohir qilgan
<b>Moniy, Boniy, Qoran</b>	Farhodga, ya’ni solikka dunyoviy ilmlarni o’rgatadigan ustozlar
<b>Suhaylo</b>	Farhodga Haqqa yetishishda yo’l ko’rsatuvchi murshidni topishga komaklashgan ustoz. Farhodning tariqatdagi 1-piri
<b>Xizr</b>	Tariqatdagi 2-pir

<b>Suqrot</b>	<b>Haqqa yetish va ko’ngil sirlarini yechishning yo’lini ko’rsatgan piri murshid</b>
<b>Ajdarho</b>	Nafs
<b>Dev</b>	Saltanat
<b>Samandar yog’i</b>	Ishq
<b>Sher</b>	G’azab
<b>Temir paykar</b>	Ro’yo, yolg’on dunyo
<b>Jamshid jomi</b>	Ko’ngilni ochish kaliti
<b>Oinayi</b>	Ko’ngil
<b>Xusrav, Sheruya, Yosuman</b>	Nafsga qul bo’lgan, shayton izmidagi bandalar

Har bir jamoaning javobini baholashda “Kutubxonani to’ldir” usulidan foydalanamiz, rag’bat kartochkalari doskaga yopishtirilib boriladi. Kartochkalarda Navoiyning darslikda berilmagan asarlari haqida ma’lumot berilgan.

Zoom (masofani hisobga olinsa navoiyshunos olimlar bilan bilan uchrashuvlar tashkil etish mumkin) dasturi orqali “TV “ mehmon usulidan foydalanish. Mashg’ulotga taklif etilgan NamDUning navoiyshunos olimlari



M.Sulaymonov va F.Karimovalarga soʻz beriladi. Ular shoir bilan bogʻliq oʻz xotiralarini oʻrtoqlashadilar. Guruhlarning ballari eʼlon qilinadi. Dars 9-sinf oʻquvchisi, Ozarbayjonning Boku shahrida oʻtkazilgan XIII mugʻom festivalida faxrli 2- oʻrinni egallagan Madina Karimjonova ijrosidagi “Ey, sabo...” mumtoz qoʻshigʻi bilan yakunlanadi.

Jahondagi ayrim davlatlar oʻzlarining buyuk ekanligini harbiy kuch-qudrati, urush-janjali, boshqalarga bosim oʻtkazishi bilan namoyon etayotgan bugungi murakkab va shiddatli zamonda ona Oʻzbekistonimiz faqat ezgu maqsadlari, yaxshilik va xalqparvarlik bilan butun dunyoga ibrat namunasini oʻtamoqda. Bu esa Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan satrlarga hamohang siyosatdir.:

“Jahl ahli bila kimgaki ulfat boʻlgʻay,  
Ul ulfati ichra yuz ming ofat boʻlgʻay.  
Faqr ahli bila angaki suhbat boʻlgʻay,  
Shak yoʻqki, ziyoda shukri neʼmat boʻlgʻay”<sup>8</sup>.

Dunyo tamaddunining eng muhim belgilardan biri, millatlarning yashab qolish shartlaridan asosiysi bu – avlodlar davomiyligi, oldingi avlod yaratgan tafakkur durdonalarining, madaniyat, sanʼat, adabiyot obidalarining farzandlar tomonidan munosib tarzda eʼzozlab-avaylanishi, va har tomonlama, izchil oʻrganishi hamda ularga amal qilgan holda muntazam yangiliklar qoʻshib borishi sanaladi. Shu maʼnoda Qarorda taʼkidlab oʻtilgan Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz oʻqitish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda 2021-2022-oʻquv yilidan barcha taʼlim muassasalarida shu asosda oʻqitishni yoʻlga qoʻyish, “Navoiy va yoshlar” maxsus dasturini yaratish, umumtaʼlim maktablari oʻquvchilari oʻrtasida “Navoiy vorislari” gʻazalxonlik tanlovi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar oʻquvchilari oʻrtasida “Navoiyni anglash” mavzusida insholar tanlovini oʻtkazish va gʻoliblarni munosib taqdirlash; beshta muhim tashabbus doirasida yosh dasturchilarni keng jalb etgan holda Alisher Navoiy asarlarining mobil ilovalarini yaratish va ularni yoshlar oʻrtasida ommalashtirish, 2021-yilda Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabini tashkil etish haqidagi fikrlari buning isbotidir.

Eng muhimi, biz oʻzimizni tanitmasak, tariximiz, madaniyatimiz, sanʼatimiz, adabiyotimizni targʻib qilmasak, boshqa xalqlar kimligimizni bilmaslikda davom etaveradi.

Qarorda alohida taʼkidlab oʻtilgan mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bagʻishlangan tadbirlar tashkil etish; chet elda istiqomat qilayotgan oʻzbek tili mutaxassislari, tarjimonlarni jalb

<sup>8</sup> Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. – Toshkent, 2006. – B.3.



etgan holda Alisher Navoiyning asarlarini chet tillarga tarjima qilish, nashr etish va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish haqidagi fikrlar O'zbekistonni dunyoga tanitish yo'lidagi o'ziga xos sobit qadamlardan biri bo'lib qolishi shubhasiz.

9-sinf o'quvchilarida ushbu yoshdagilarga xos bo'lgan kelajakka intilish, odamlar bilan qiziqish, atrof-muhitga tanqidiy nazar bilan qarash, nasihatlarni xushlamaslik, kattalarning mehribonligidan g'ashlanish, ularning ehtiyotkorligidan malollanish singari sifatlar ustuvorlik qiladi. O'n to'rt-o'n besh yoshli o'smirda emotsional ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. U o'zida e'tibor-u e'tirofga, hayotdan zavqlanishga moyillik sezadi<sup>9</sup>. Mazkur faslda integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa masalalari ham yoritiladi. Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarini o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orqasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi<sup>10</sup>.

Turk dunyosining etuk adiblari qadimdan bolalikka, bola tarbiyasiga butun inson hayotini ilhomlantiradigan, uning mazmunini tashkil etadigan azaliy qadriyatlar sifatida qarab kelganlar hamda asarlarida aks etgan voqelikni badiiy talqin etishda bolalar obraziga, ularning xatti-harakati, ichki dunyosiga murojaat qilganlar. Insonni tushunish va tushuntirish yo'lida ular o'zlarining kichik qahramonlari ma'naviy takomili manbalari bo'lmish oila, ota-onalari va ustozlar, atrofdagi tabiat va hayot voqeliklari, Vatan tarixi va milliy qadriyatlarni tasvir hamda tadqiq ob'ekti o'laroq tanlaydilar. Haqiqiy so'z san'atkorlari asarlarida pedagogik qarash, ta'limiy g'oyalar yalong'och pand-nasihat shaklda berilmay, balki ular badiiy obrazlar, badiiy asar to'qimalariga singitib yuboriladi. Ular asarlarda aks etgan voqelik ziddiyatlarda, personajlar xatti-harakati, xususiyatlarida hamda ichki kechinmalari orqali badiiy inkishof etiladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa" sida bir talay ijtimoiy, ma'naviy hamda maishiy muammolar qatorida ta'lim-tarbiyaga oid masalalar ko'lamli tarzda yoritilgan, adib ularning echimi ustida kitobxonni (aslida umuman jamiyatni) o'ylashga undaydi. Farhod ning milliy qadriyatlarga ko'ngildan berilgani, oilaviy munosabatlardagi ma'naviy o'lchovlar, maktab, tarbiya mavzusi, bolaning hali borib ulgurmagani ta'lim dargohiga o'zgacha mehri kabilar asarda pedagogik talqin va tahlilga keng yo'l ochadi.

<sup>9</sup> Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. – Тошкент, Innovatsiya ziyo, 2022. – 314 b.

<sup>10</sup> <http://dis.akademic.ru/>



Aslida badiiy adabiyotning pedagogikaga bilan bog'liqligi, ta'lim va tarbiya borasidagi imkoniyatlari xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida, ilk umumturkiy va mumtoz adabiyot namunalarida yaqqol ifodasini topgan. Bu durdonalar ham badiiy so'z san'atining mavzumizga aloqador jihatlarini ochiqlashga yordam beradi. Ta'kidlash kerakki, adabiyotning ijtimoiy fanlar sirasidagi o'rni va ahamiyati uning boshqalarga nisbatan etimologik asos mavqeyida ekanligidadir.

O'zbek adabiyotining asoschisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning xalq tafakkuri shakllanishida tutgan o'rni asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Navoiyning asarlaridagi demokratik qarashlar, xalqqa, adolatga, yaxshi amallarga va, umuman, insoniyatga bo'lgan muhabbatga qorishib ketgan. Uning "Xamsa", "Muhokamat ul -lug'atayn" asarlari insoniy pedagogik qarashlarning durdonasi hisoblanadi. U o'z maslahatlarini, asosan, yoshlarga yo'naltirgan. "Sen boshingni otang oldida eg, yuragingni onangga topshir", "Sen kattalar oldidagi hurmat burchingni unutma, tengdoshlaring bilan xolis bo'l", "Tanlanganlar nurga etishi uchun o'ttiz, qirq yil o'qish kerak", "So'z faqat yaxshilik uchun kamon o'qidek shiddatli bo'ladi", "Yaxshilik qilgan odam mukofot so'ramaydi", "Kimki o'zining barcha bergan va'dalarini bajarsa, u barcha xohlagan narsalariga erishadi", deya ta'kidlagan.

Navoiy o'zining adabiy asarlarida axloqiy barkamollik g'oyalarini ilgari surib, ilmning ajdoddan avlodga o'tishi va tarbiyaning ma'naviy jihatini ochib bergan. Uning asarlaridagi ko'p e'tibor qilingan insoniylik va donishmandlik insoniy qadriyatlarga bog'lab berilgan.

Aytish mumkinki, Navoiy ijodi komillikka erishishning shart va talablari, yo'l va usullari haqidagi badiiy dasturdir. Komillik kasb etishning sharti - nafsni engib, o'zlikni tanish. Nafsni esa o'zaro tutashib ketuvchi ikki yo'sin orqali sindirish mumkin. Birinchisi: ko'ngilni Haq ishq bilan poklab, hoyu havaslardan voz kechish, riyozat va mashaqqatlarga sabr qilish. Ikkinchisi: boshqa insonlarning manfaati uchun o'z manfaatidan voz kecha olish, o'z istak-xohishlarini boshqalarga naf keltirish uchun qurbon qila olish. Navoiy ijodida ham bu ikki qarash uyg'un holda ilgari surilgan. Muhimi shundaki, Navoiyning xalqsevarlik haqidagi bu qarashlari quruq pand-nasihatchilik tarzida yuzaga kelmagan, balki butun hayotini boshqa insonlar manfaati deya fidoyilikda o'tkazgan mutakakkirning hayotiy tajribalaridan tug'ilgan. Inson zotini sevish, unga cheksiz shafqat va marhamat nazari bilan qarash, o'z g'alar dardini o'z tinchidan ustun qo'yish Navoiy hayotining mohiyatini tashkil etgan. Vaholanki, Navoiy umri davomida atrofida gilardan juda ko'p jabru jafo, sitam va alam ko'rgan. Aks holda u

*Har necha qildim vafo, juz bevafo'lig' ko'rmadim,*



*Ne ajab ko'nglumga bo'lsa nav'i insondin malol*<sup>11</sup> qabilidagi baytlarni yozmagan bo'lar edi. Biroq, "Naf'ing agar xalqqa beshak durur, Bilki bu naf o'zingga ko'prak durur" degan ishonchni hayotiy tamoyil darajasiga ko'targan Navoiy etkazilayotgan har bir ozorga nisbatan marhamat bilan javob berish ortida nafsning mag'lubiyatini va ruhning g'olibligini ko'rgan.

Navoiy butun ijodi va hayotini xalqqa, insonlarga baxshida etdi.

Bu baxshidalik uch tomonlama ga ega:

1. Insonlarning ma'naviy manfaatiga xizmat qiladigan bebaho asarlar yaratdi.

2. O'zi el-yurt osoyishtaligi va farovonligi yo'lida beminnat xizmatda bo'ldi. O'z so'zlari bilan aytganda "odamlar g'amidan g'am eb" yashadi.

3. Navoiy ma'naviy xazina - asarlaridan tashqari o'z moddiy boyliklarini ham xalqqa nisor qildi.

4. Jahondagi ayrim davlatlar o'zlarining buyuk ekanligini harbiy kuch-qudrati, urush-janjali, boshqalarga bosim o'tkazishi bilan namoyon etayotgan bugungi murakkab va shiddatli zamonda ona O'zbekistonimiz faqat ezgu maqsadlari, yaxshilik va xalqparvarlik bilan butun dunyoga ibrat namunasini o'tamoqda. Bu esa Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan satrlarga hamohang siyosatdir.:

"Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo'lg'ay,  
Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo'lg'ay.  
Faqr ahli bila angaki suhbat bo'lg'ay,  
Shak yo'qki, ziyoda shukri ne'mat bo'lg'ay"<sup>12</sup>.

Dunyo tamaddunining eng muhim belgilardan biri, millatlarning yashab qolish shartlaridan asosiysi bu - avlodlar davomiyligi, oldingi avlod yaratgan tafakkur durdonalarining, madaniyat, san'at, adabiyot obidalarining farzandlar tomonidan munosib tarzda e'zozlab-avaylanishi, va har tomonlama, izchil o'rganishi hamda ularga amal qilgan holda muntazam yangiliklar qo'shib borishi sanaladi. Shu ma'noda Qarorda ta'kidlab o'tilgan Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o'qitish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda 2021-2022-o'quv yilidan barcha ta'lim muassasalarida shu asosda o'qitishni yo'lga qo'yish, "Navoiy va yoshlar" maxsus dasturini yaratish, umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Navoiy vorislari" g'azalxonlik tanlovi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari o'rtasida "Navoiyni anglash" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash; beshta muhim tashabbus doirasida

<sup>11</sup> Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6- том. - Тошкент: Фан, 1990. – Б.196.

<sup>12</sup> Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2006, 3-bet.



yosh dasturchilarni keng jalb etgan holda Alisher Navoiy asarlarining mobil ilovalarini yaratish va ularni yoshlar o'rtasida ommalashtirish, 2021-yilda Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabini tashkil etish haqidagi fikrlari buning isbotidir.

Eng muhimi, biz o'zimizni tanitmasak, tariximiz, madaniyatimiz, san'atimiz, adabiyotimizni targ'ib qilmasak, boshqa xalqlar kimligimizni bilmaslikda davom etaveradi.

Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida ham kichik yosh paytidan Qosim Anvorning g'azallaridan yodlaganiga ishora qiladi: "Yana biri bukim:

Rindemu oshiqemu jahonso'zu joma chok,

Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok.

Bu faqir avval nazmekim, o'rganibmen, bu so'nggi matladur. Hamono uch yosh bila to'rt yoshning orasida erdim, azizlar o'qumoq taklifi qilib, ba'zi hayrat izhor qilurlar erdi"<sup>13</sup>.

Ushbu parcha ko'plab mulohazalar yuritishga imkon beradi:

- bola Alisher ushbu she'rni juda erta - uch-to'rt yoshligidayoq yod olgan;

- she'rning atrofdagi katta yoshli kishilar taklifi bilan aytilganiga qaraganda bunday "mashg'ulot" bir marta bo'lmagan, demak, bolalar she'rxonligi muayyan davradagi doimiy adabiy hodisalar sirasiga kirgan;

- shunday davralarda ham boshqa lirik janrlarga nisbatan g'azalga ustuvorlik berilgan.

Muhimi shundaki, Navoiyning xalqsevarlik haqidagi bu qarashlari quruq pand-nasihat tarzida yuzaga kelmagan, balki butun hayotini boshqa insonlar manfaati deya fidoyilikda o'tkazgan mutakakkirning hayotiy tajribalaridan tug'ilgan. Inson zotini sevish, unga cheksiz shafqat va marhamat nazari bilan qarash, o'zgaralar dardini o'z tinchidan ustun qo'yish Navoiy hayotining mohiyatini tashkil etgan. Vaholanki, Navoiy umri davomida atrofidagilardan juda ko'p jabru jafu, sitam va alam ko'rgan. Aks holda u

*Har necha qildim vafo, juz bevafolig' ko'rmadim,*

*Ne ajab ko'nglumga bo'lsa nav'i insondin malol*<sup>14</sup> qabilidagi baytlarni yozmagan bo'lar edi. Biroq, "Naf'ing agar xalqqa beshak durur, Bilki bu naf o'zingga ko'prak durur" degan ishonchni hayotiy tamoyil darajasiga ko'targan Navoiy etkazilayotgan har bir ozorga nisbatan marhamat bilan javob berish ortida nafsning mag'lubiyatini va ruhning g'olibligini ko'rgan.

Navoiy butun ijodi va hayotini xalqqa, insonlarga baxshida etdi.

<sup>13</sup> Навоий А. Мажолис ун-нафоис. Тўла асарлар тўплами: 10 жилдлик. 9 жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 292.

<sup>14</sup> Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6- том. - Тошкент: Фан, 1990. – Б.196.



Bu baxshidalik uch tomonlama ga ega:

1. Insonlarning ma'naviy manfaatiga xizmat qiladigan bebaho asarlar yaratdi.

2. O'zi el-yurt osoyishtaligi va farovonligi yo'lida beminnat xizmatda bo'ldi.

O'z so'zlari bilan aytganda "odamlar g'amidan g'am eb" yashadi.

3. Navoiy ma'naviy xazina - asarlaridan tashqari o'z moddiy boyliklarini ham xalqqa nisor qildi.

G'azal tahlillari namunalarini yaratish adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ancha oldin boshlangan bo'lsa-da, metodik jihatdan dastlabki tadqiqot A.Zunnunov, R.Usmonovlar tomonidan tayyorlangan, alohida sinflardagi adabiyot darslari uchun metodik qo'llanmalar yaratish an'anasini boshlab bergan "7-sinf "Vatan adabiyoti" darslik-xrestomatiyasi uchun metodik qo'llanma"si<sup>15</sup> hisoblanadi. Kitobda o'sha davr darsliklaridan o'rin olgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning "O'zbek xotin-qizlariga" g'azali tahlili amalga oshirilgan. Taniqli metodist olim A.Zunnunovning "4 - 10-sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish"<sup>16</sup> nomli metodik qo'llanmasida g'azal janrining nazariy jihatlari, o'ziga xosliklari, g'azalning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi misra, bayt, qofiya, taxallus kabi tushunchalarga ham qisqa izoh berilgan. SHuningdek, aruz vazni ham tushuntirilib, asl ruknlar va zihoflar ham maktab o'quvchisiga mos tarzda yoritib berilgan.

Methodist olim A.Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish"<sup>17</sup> nomli tadqiqoti ayni yo'nalishdagi ilk metodik qo'llanmasi bunga qadar sof nazariy ga juda ko'plab asarlardan farq qiladi. Qo'llanma ikki qismdan tashkil topgan. Dastlab aruz vaznining asosiy tushunchalari, xususiyatlari, qonun-qoidalari tanishtirilsa, ikkinchi qismida bevosita o'sha davr dastur va darsliklaridan o'rin olgan mumtoz asarlarning vazni, taqtesi, ruknlari ko'rsatilgan, ularni ifodali o'qishda qanday jihatlarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida tavsiyalar berilgan. Oliy ta'limning bakalavriat bosqichi talabalar uchun mo'ljallab yaratilgan U.To'ychievning "Aruzshunoslikka doir"<sup>18</sup>, T.Boboev va B.Qurbonboevlarning "Aruz vaznlarini o'rganish"<sup>19</sup>, D.Yusupovaning "Aruz alifbosi"<sup>20</sup> va "Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari"<sup>21</sup> bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining aruz sistemasini to'liq o'rganishi uchun muhim

<sup>15</sup> Зуннунов А., Усмонов Р. 7-синф "Ватан адабиёти" дарслик-хрестоматияси учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б. 120.

<sup>16</sup> Зуннунов А. 4 – 10 синфларда адабий-назарий тушунчаларни ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1974.

<sup>17</sup> Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978.

<sup>18</sup> Тўйчиев У. Арузшunosликка доир. – Т.: Фан, 1973.

<sup>19</sup> Бобоев Т., Қуронбоев Б. Аруз вазнларини ўрганиш. – Т., 1991.

<sup>20</sup> Yusupova D. Aruz alifbosi. – Т.: Akademnashr, 2015.

<sup>21</sup> Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Т.: Ta'lim-media, 2019.





qo'llanmalardandir. S.Akmalov "4 – 7-sinflarda she'riy asarlarni o'rganish"<sup>22</sup> kitobida mumtoz lirik asarlarni tahlil qilish bosqichlarini Boburning "So'rma xolimniki bo'ldim burnog'idan zorroq" g'azali misolida ko'rsatib bergan. A.Zunnunov, N.Xotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlarning "Adabiyot o'qitish metodikasi"<sup>23</sup> qo'llanmasida she'riy asarlar tahlilida aniq reja asosida ifodali o'qish, ayrim so'z, misralarga izoh berish, obrazlarni taqqoslash, suhbat tashkil qilish, tabiatga sayohat (bu sirdan bo'lishi ham mumkin) uyushtirish, rasmlar namoyish etish, texnik vositalardan foydalanish kabi usullar tavsiya etilgan. Q.Yo'ldoshev, O.Madaev, A.Abdurazzoqovlar tomonidan tayyorlangan "Adabiyot o'qitish metodikasi"<sup>24</sup> mustaqillik davrida yaratilgan ilk tadqiqotlardan bo'lib, kitobda lirik asarlar tahliliga e'tibor qaratilgan. B.To'xliiev "Adabiyot o'qitish metodikasi"<sup>25</sup> kitobida g'azal janri misolida lirik asarlarni tahlil qilish usullarini ko'rsatib bergan. Bunda g'azalni ifodali o'qish, agar imkoni bo'lsa she'rni professional aktyorlar, taniqli so'z ustalari, o'rni bilan esa ularning musiqa yordamidagi ijrosidan foydalanish maqsadga muvofiqligi, tahlilda o'quvchi yoshini alohida e'tiborga olish kerakligi, shundan so'ng g'azalning baytma-bayt tahliliga o'tilishi lozimligi, bunda mumtoz adabiy asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanib, baytdagi har bir so'zning lug'aviy ma'nosi, o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanayotgani, uning boshqa so'zlarga munosabatini aniqlab olishga e'tibor qaratish kerakligi qayd etilgan. "Adabiyot o'qitish metodikasi: amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari"<sup>26</sup> qo'llanmasida esa har bir g'azalni tahlil qilishda uning nasriy bayonidan foydalanishning zarurat va imkoniyatlari ilmiy asoslangan. "Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish"<sup>27</sup> monografiyasida Alisher Navoiyning umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklaridan o'rin olgan g'azallari batafsil sharhlangan. Q.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshevalar esa "Badiiy tahlil asoslari"<sup>28</sup> monografiyasida lirik asarlarni tahlil qilishda ularning adabiy tur sifatidagi o'ziga xos belgilarini hisobga olishni ta'kidlashadi. Ushbu nazariy fikrlari asosida Q. Yo'ldoshev tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan "Adabiy saboqlar -7"<sup>29</sup>,

<sup>22</sup> Akmalov S. 4 – 7-sinflarda she'riy asarlarini o'rganish. – T., 1977.

<sup>23</sup> Zunnunov A., Xotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Ukituvchi, 1992.

<sup>24</sup> Yo'ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T., 1994.

<sup>25</sup> Tuxliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidaagi Uzbekiston milliy kutubxonasi, 2010. – 168 b.

<sup>26</sup> Tuxliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: Alisher Navoiy nomidaagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyati, 2012. – B. 94 – 95.

<sup>27</sup> To'xliyev B., Ashurova G. Ta'lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish. – T.: Bayoz, 2017. – 208 b.

<sup>28</sup> Yo'ldoshev Q., Yo'ldoshevalar M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.

<sup>29</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar 7. Umumta'lim maktablarining 7-sinf "Adabiyot" uchun metodik qo'llanma. – T.: Bilim, 2003.



“Adabiy saboqlar – 8”<sup>30</sup>, “Adabiy saboqlar – 9” (V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov hammuallifligida)<sup>31</sup> nomli avvalroq chop etilgan metodik qo‘llanmalarda g‘azallar tahlili amalga oshirilgan. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov “Adabiyot 8-sinf: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”sida<sup>32</sup> Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiyning g‘azallarini o‘quvchilarga tushuntirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. N.Karimov va boshqalarning “Adabiyot 9-sinf: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”<sup>33</sup> nomli kitobida ham g‘azallar tahlil qilinadi. Q.Husanboeva, R.Niyozmetovalarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi”<sup>34</sup> nomli o‘quv qo‘llanmasidagi she‘r tahlillariga oid fikr-mulohazalar beriladi. V.Qodirovning “Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va echimlar”<sup>35</sup> monografiyasi va “Umumta‘lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” nomli dissertatsiyasi<sup>36</sup> da o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarining o‘quv tahlilini amalga oshirish tartibi tavsiya etilgan<sup>37</sup>.

Biz yuqorida ko‘rib chiqqan tadqiqotlardan tashqari davriy nashrlarda respublikamiz olimlari, ijodkor metodistlar, umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchilari tomonidan o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishdagi usullar, muammo va echimlar aks etgan maqolalar, dars ishlanmalari chop etilmoqda<sup>38</sup>.

<sup>30</sup> Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar 8. Umumta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun metodik qo‘llanma. – T.: Sharq, 2004.

<sup>31</sup> Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar 9. Umumta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun metodik qo‘llanma. – T.: Yangiyo‘l poligraph servise, 2006.

<sup>32</sup> Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R.. Adabiyot 8-sinf: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.

<sup>33</sup> Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Qosimov B., Ahmedov S. Adabiyot 9-sinf: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T. Ma‘naviyat, 2002.

<sup>34</sup> Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018.

<sup>35</sup> Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va echimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi Ўzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

<sup>36</sup> Qodirov V. Umumta‘lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan. dok. ...diss. – T., 2019.

<sup>37</sup> Qodirov V. Umumta‘lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan. dok. ...diss. – T., 2019. – B. 145 – 153.

<sup>38</sup> Kurchieva M. 10-sinfda Nodirabegimning “Fignonkim...” deb bo‘shlanuvchi gazali matni ustida ishlash // Til va adabiyot ta‘limi, 1994. – № 1. – B. 22 – 24; Mavlonov O. Yana “Qaro kuzum” gazalini o‘rganish tajribasidan // Til va adabiyot ta‘limi, 1998. – № 4. – B. 14 – 24; Qodirov V. Maktabda Xuvaydo ijodini o‘rganish // Til va adabiyot ta‘limi, 1998. – № 4. – B. 25 – 31; Fayzullov B. Navoiyning tatabbunavislik mahorati // Til va adabiyot ta‘limi, 1998. – № 6. – B. 13 – 16; Fozilova X. O‘quvchilarga Zavqiy ijodini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o‘rgatish // Til va adabiyot ta‘limi, 2005. – № 5. – B. 18 – 23; Mirhabibova N. 10-sinfda Alisher Navoiyning “O‘n sakkiz ming olam oshubi” g‘azalini o‘rganish // Til va adabiyot ta‘limi, 2007. – № 3. – B. 8–1; Sobirova M. Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalini o‘rganish xususida // Til va adabiyot ta‘limi, 2010. – № 12. – B. 7 – 15; Ibrohimov A. Uvaysiy ijodidan ikki dars // Til va adabiyot ta‘limi, 2011. – № 10. – B. 22 – 30; Qunduzova N. “Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati” g‘azalini o‘rganish // Til va adabiyot ta‘limi, 2012. – № 10. – B. 9 – 11; Majidova S. Alisher Navoiyning “Shayx” radifli g‘azali matni ustida ishlash // Til va adabiyot ta‘limi, 2012. – № 11. – B. 11 – 13; Siddiqov M. “Ashraqt...”ni anglash // Til va adabiyot ta‘limi, 2013. – № 6. – B. 46 – 48; Rajabova S. Ogahiyning “Ustina” radifli g‘azali tahlili // Til va adabiyot ta‘limi, 2013. – № 11. – B. 15 – 17; Tursunova M. Mashrabni o‘rtagan ishq // Til va adabiyot ta‘limi, 2014. – № 10. – B. 17 – 18; Toshmirzayeva Sh. Badiiy asar tahlili jarayonida kompetentlikni shakllantirish // Til va adabiyot ta‘limi, 2018. – № 1. – B. 20 – 22.



Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqoridagidek tadqiqotlar, metodik qo'llanmalar yaratilganiga qaramay, g'azal mulking sultoni, o'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy ijodini o'quvchilarning to'la o'zlashtirishlari mushkul bo'lmoqda. Bu holat adabiyot o'qituvchilaridan ham jiddiy filologik va metodik tayyorgarlik talab qilmoqda.

Alisher Navoiy ijodini o'rgatishda bugun zamonaviy innovatsion texnologiyalar qo'l kelmoqda. Mazkur jarayon samaradorligini ta'minlaydigan yangicha o'qitish usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash darajalarini aniqlashtirish maqsadida innovatsion usullardan foydalandik.

Buyuk shoirning "Farhod va Shirin" dostoni asosida mustahkamlash darsida **"Impuls-plakat" metodini** qo'lladik. Mashg'ulot boshida har bir o'quvchiga oq qog'oz va markerlar tarqatdik. Stollarning ustiga oxirigacha etkazilmagan fikrlar yozilgan oq qog'oz qo'yildi. Masalan,

"Ushbu mavzuda meni hammasidan ko'proq ... qiziqtiradi"; "Men shuni aniqlashtirmoqchi edimki..."; "Men orttirgan bilimlarimni...qo'llayman"; "Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida men ... erishdim"; "Men...to'g'risida bilib olmoqchi edim"; "Men uchun... murakkab bo'ldi" kabi. Belgilangan vaqt davomida (taxminan 20 daqiqa) ushbu savollar asosida o'quvchilar o'z loyihalarini yaratishadi. Buni guruhlar shaklida ham olib borish mumkin. Har bir loyiha kamida 10 ta so'zdan iborat bo'lishi tushuntiriladi. Loyihalar yaratilgandan so'ng qog'ozlar ilib qo'yiladi. Natijalar biz kutgandek bo'ldi, har bir o'quvchi o'z fikrini mustaqil yoza oldi.

Jumladan, o'quvchilardan quyidagi javoblarni oldik:

1.Ushbu mavzuda meni hammasidan ko'proq XV asrdagi kasb-hunar qiziqtirdi.

2.Men shoirning asl maqsadini aniqlashtirmoqchi edim. Aniqladim. Mutafakkir Farhod garchi hoqonning farzandi bo'lsa ham kasb-hunar, ilm-ma'rifat egasi bo'lmaguncha davlatni boshqara olmasligini uqtirgan.Millatlararo do'slik, mehr-oqibat, sadoqat, Vatanga, do'stga sodiqlik, Allohga bo'lgan ishq ifodalangan.

3.Men orttirgan bilimlarimni oliy ta'limga kirish imtihoni va hayotda qo'llayman.

4."Farhod va Shirin" dostonini o'rganish jarayonida men o'z lug'at boyligimni oshirdim, komillik fazilatni o'rganib oldim.

5.Men Farhod va Shirin haqida ko'proq bilib olmoqchi edim.

6.Men uchun o'sha davr lug'atini tushunish murakkab bo'ldi.O'zbek tilini mukammal bilmasligimni bilib oldim.

7.Alisher Navoiyning mahoratini tushunib yetdim.



Taxminan 20 daqiqa o'quvchilar yakunlanmagan savollarni sarlavha qilib olish asosida o'z loyihalarini yaratadilar. Har bir loyiha kamida 10 so'zdan iborat bo'lishi kerak. Ixtiyoriy manbalardan foydalanish aytib o'tiladi. Loyihalar yaratilgandan so'ng plakatlari ilib qo'yiladi.

Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida quyidagi umumpedagogik va didaktik tamoyillarga rioya qilish muhim:<sup>39</sup>

-maqsad sari yo'nalganlik tamoyili;

-ilmiylik, tadrijiylik, uzluksizlik tamoyili;

-ta'lim-tarbiya birligi tamoyili;

-tanishdan notanishga, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga qarab borish tamoyillari;

-o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'yiladigan xatolarni hisobga olish tamoyili;

-ularning bilim saviyasiga tayanish tamoyili;

-amaliy yo'nalganlik tamoyili.

O'quvchilarga yangi mavzu bayonida «**Anglab ol!**» deb nomlangan usulda o'z bilim va iste'dodlarini namoyish etish imkoni beriladi. O'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar asosida quyidagi tarzda javoblar olindi:

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining so'z ta'rifiga bag'ishlangan bobida she'r haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

Donayi dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrida durdona bil.

Munchaki sharh etti qalam so'zga hol

Nasridadur, nazmida bor o'zga hol...

Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i,

Nasr qaro erga sochilmog'lig'i.

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,

Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm.

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,

Bo'lsun aning surati har ne durur.

Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,

Ahli maoniy qoshida xo'b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,

Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga<sup>40</sup>.

<sup>39</sup> Мактаб ўқувчиларида ҳаётий кўникмаларни ривожлантириш. Филология фанлари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. 47-б. Тошкент-2021.

<sup>40</sup> Навоий А. Ҳайрат ул-аброр. Тўла асарлар тўплами: 20 жилдлик. 7 жилд. – Т.: Фан, 1991. – Б. 59 – 61.



Navoiy soʻzning ijtimoiy hamda estetik ahamiyatiga alohida urgʻu bermoqda. Ayni paytda nasrning ulugʻ mavqeyiga munosabatini bildira turib, nazmga yanada yuksak martaba munosibligini taʼkidlaydi. Nazm, adib fikricha – gulshanda ochilgan gul, nasr esa oʻsha gulning erga sochilgan holatidir. Buning asosiy sabablaridan biri nazmning ilohiy asoslarga – moʻjizaga egaligi, xususan, Qurʼoni Karimning ifoda uslubi sheʼriy elementlar bilan bezatilganidir. Ammo nazm goʻzal maʼno bilangina yarashiqli boʻladi. Uning surati, shakli qanday boʻlishidan qatʼiy nazar, agar mazmuni munosib boʻlmasa, bu sheʼrni yaxshi deb boʻlmaydi. Maʼnosi yoqimli va shakli goʻzal boʻlgan nazmgina “dilkash” boʻladi. Ushbu mulohazalar XV asr sharoitida aytilgan boʻlishiga qaramay, bugun ham oʻzining ilmiy-amaliy qimmatini yoʻqotgan emas.

Qadimda sheʼrlardan savod chiqarish va xotirani mustahkamlash maqsadida foydalanilganini Alisher Navoiyning quyidagi baytlari ham tasdiqlaydi:

Yodima mundoq kelur bu mojaro,  
Kim tufuliyat chogʻi maktab aro.  
Kim chekar atfol marhumi zabun,  
Har tarafdin bir sabaq zabtigʻa un.  
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,  
Yo “Kalomulloh”ning takroridin.  
Istabon tashxisi xotir ustod,  
Nazm oʻquturkim ravon boʻlsun savod<sup>41</sup>.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida ham kichik yosh paytidan Qosim Anvorning gʻazallaridan yodlaganiga ishora qiladi: “Yana biri bukim:

Rindemu oshiqemu jahonsoʻzu joma chok,  
Bo davlati gʻami tu zi fikri jahon chi bok.

Bu faqir avval nazmekim, oʻrganibmen, bu soʻnggi matladur. Hamono uch yosh bila toʻrt yoshning orasida erdim, azizlar oʻqumoq taklifi qilib, baʼzi hayrat izhor qilurlar erdi”<sup>42</sup>.

Ushbu parcha koʻplab mulohazalar yuritishga imkon beradi:

- bola Alisher ushbu sheʼrni juda erta – uch-toʻrt yoshligidayoq yod olgan;
- sheʼrning atrofdagi katta yoshli kishilar taklifi bilan aytilganiga qaraganda bunday “mashgʻulot” bir marta boʻlmagan, demak, bolalar sheʼrxonligi muayyan davradagi doimiy adabiy hodisalar sirasiga kirgan;

<sup>41</sup> Навоий А. Лисон ут-тайр. Тўла асарлар тўплами: 10 жилдлик. 9 жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 279.

<sup>42</sup> Навоий А. Мажолис ун-нафоис. Тўла асарлар тўплами: 10 жилдлик. 9 жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 292.



– shunday davralarda ham boshqa lirik janrlarga nisbatan g'azalga ustuvorlik berilgan.

Darsni boshidan oxirigacha qamrab oluvchi **“Yalpi fikriy hujum”** texnologiyasidan foydalanish ham samara beradi. Texnologiya J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin. Ushbu texnologiya o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat kiladi.

Ta'lim sifatiga erishish va rivojlantirish, maktab o'quvchilarining kasbiy mahoratini doimiy va uzluksiz ravishda oshirib borishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida, pedagoglar kasbiy mahoratida va bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirib boruvchi, amaliy faoliyatlariga ijodiy yondashuvni rivojlantiruvchi metodik muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo ta'lim tizimi tarixida ko'plab yangi innovatsion texnologiyalarning paydo bo'lishi va amaliyotga tatbiq etilishiga guvoh bo'lib kelmoqdamiz. Bular qatoriga televidenie, radio, personal kompyuterlar, tarmoqlar, Internet, mobil aloqa, sun'iy yo'ldosh (sputnik), kosmos, atom energetikasi va boshqa ko'plab misollarni keltirish mumkin. XXI asr texnika va texnologiyalar rivojlangan davri sifatida namoyon bo'ldi, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Bu tendensiya boshqa sohalar qatori ta'limga ham ta'sir ko'rsatdi. Ushbu texnika va texnologiyalar ta'limda sifatini oshirdi, imkoniyatlarni yanada kengaytirdi, shu bilan birga, ta'lim berishning yangi ufqlarini ochdi. *“XXI asrda texnologiya atamasi ko'plab sohalar, jumladan, ta'lim sohasida muhim masala sanaladi. Buning sababi shundaki, texnologiya aksariyat mamlakatlarda bilimlarni uzatish magistraliga aylandi”*<sup>43</sup>. Zamonaviy texnologiyalarning jamiyatning turli sohalarida keltirgan ulkan foydalari va qulayliklari, shubhasiz, ta'limda ham xuddi shunday samaralarga erishish mumkinligini anglatadi. *“Sanoat davridan raqamli asrga o'tish jarayoni amalga oshayotgan vaqtda ta'lim muassasalari ushbu o'zgarishga qanday uyg'unlashishi va zarur moslashishni qanday ta'minlashi kerakligi masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda”*<sup>44</sup>.

**“Virtual sayohat” usuli.** Jahon tajribasida ko'plab muzeylarga virtual sayohat qilish imkoniyatlari yaratilgan. Google Madaniyat Akademiyasi (Google Cultural Institute) mahsuloti bo'yicha menejer Dunkan Osbornning bildirishicha,

<sup>43</sup> Ghavifekr S., Rosdy W. A. Teaching and learning with technology: Effectiveness of ICT integration in schools // International journal of research in education and science (IJRES), 2015. – Vol. 1 (2), – P. 175.

<sup>44</sup> Parlak B. Dijital çağda eğitim: olanaklar ve uygulamalar üzerine bir analiz // The Journal of Faculty of Economics and Administrative Sciences, 2017. – Vol. 22, Special Issue on Kayfor 15. – S. 1742.



sayt va dasturlar yordamida jahonning 70 mamlakatida joylashgan mingdan ortiq muzeyga virtual sayohat uyushtirish mumkin<sup>45</sup>. Ushbu muzeylar qatorida ko'plab mashhur yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodiga virtual sayohat qilish imkonini beruvchi muzeylar ham mavjud<sup>46</sup>.

“Umumta’lim maktablari o’quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ularning roli kattadir. Chunki virtual muzeylarning real muzeylardan farqi o’quvchilar o’qituvchi yordamisiz mustaqil o’zlari sayohat qilishlari mumkin. Shunday ekan, bu ularga keng imkoniyatlarni yaratadi. Bu nafaqat ilmiy dunyoqarashni rivojlantiradi, balki o’quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitishga asos bo’ladi. Virtual muzeylardan foydalanish o’quvchilarni nafaqat muzey eksponatlari bilan tanishishga, balki internet tarmog’idan erkin foydalana olish ko’nikmasini hosil qilishga ham imkon yaratadi”<sup>47</sup>. Masalan, adabiyot darslarida yozuvchi tarjimai holini o’rganish uchun maxsus soat ajratilgan emas. Shunday vaziyatda yozuvchi-shoirlarning uy-muzeylarini virtual sayohat qilish topshirig’ini berish lozim. O’quvchilar uni mustaqil tarzda uyda o’rganib keladi. O’qituvchi esa mustahkamlovchi savollar bilan o’quvchi bilimni nazorat qiladi.

Insonlarning muloqoti ijtimoiy tarmoqlar va turli messenjer dasturlari asosida tashkil etilishi an’anaga aylanib kelmoqda. Ta’lim oluvchilar yoki ilm bilan shug’ulanuvchilar fan va sohaga oid yangilik va ixtirolar bilan internet tarmog’i orqali tanishmoqda.


Alisher Navoiy asarlarini o’rganish davomida uning asarlariga singdirilgan g’oyalarni tushuntirgach, interaktiv metodlardan foydalanib, amaliyotga tatbiq etish mumkin. Buning uchun **“Quyosh jadvali” usuli** asosida aqliy hujumdan foydalanish o’rinli.

---

<sup>45</sup> <https://tjournal.ru/flood/31670-google-vypustil-prilozhenie-arts-culture-dlya-virtualnyh-puteshestviy-po-muzeyam>

<sup>46</sup> <http://www.domgogolya.ru/museum/#N.V.Gogol> muzei. Государственный литературный музей. Дом-музей А.П.Чехова. Виртуальная экскурсия. URL: <https://goslitmuz.ru/museums/dom-muzey-a-p-chekhova/virtualnaya-ekskursiya/1292/>; Виртуальная панорама «Бородино». URL: <http://mpbb.ru/data/vtours/borodino/index.html> <https://www.shakespearesglobe.com/discover/about-us/virtual-tour/>

<sup>47</sup> Xodjayev B. Virtual muzey yaratish texnologiyasi va amaliyotda qo’llash tajribasidan // Infocom.uz. 2012, – № 1. – B. 41.



Keltirilgan tasvirning bir tomonida Navoiy ulug‘lagan odob-axloq mezonlari, ikkinchi tomonida esa ularga oid hadislar keltirilgan. Ushbu jadval o‘quvchilarga tarqatiladi, imkon bo‘lsa, videoproektor orqali o‘quvchilar e‘tiboriga ekranda namoyish qilinadi. Shu asosida odob-axloq mezonlari Navoiyning qaysi asarida aks etganligiga oid topshiriq olishadi. Ular o‘ng tomondagi hadislar mazmuni o‘zlashtirilgach, chap tomonda keltirilgan odob mazmuni izohlangan satrni Navoiy asaridan o‘qib berishadi yoki ko‘rsatishadi hamda chap tomondagi ustunga tushunganlik darajasini belgilab qo‘yishadi. Masalan, to‘liq tushunganlar beshta belgi, yaxshi tushunganlar to‘rtta belgi, o‘rta tushunganlar uchta belgi bilan ifodalaydi.